



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
__-umumiy o'rta ta'lim maktabi
11-"__" sinf rahbari

_____ning
2023-2024-o'quv yili uchun

SINF SOATLAR ISH REJASI VA DARS ISHLANMALARI

Tushuntirish xati

Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarorida belgilandi. 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab 1-11-sinflarda haftaning juma kunidagi birinchi darsni sinf rahbarlari va tegishli mutahasisslar tomonidan “Sinf soati” sifatida o‘tilishi yo‘lga qo‘yildi. **Ma’lumki, sinf rahbari o‘z sinfidagi o‘quvchilarning bevosita ta’lim-tarbiya jarayoni, ya’ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas’ul shaxs hisoblanadi.**

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sinf rahbari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi qarorlari, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli me’yoriy hujjatlar va Xalq ta’limi vazirligining 2020-yil 30-iyuldagi 180-sonli buyrug‘i 2-ilovasi bilan tasdiqlangan **“Ta’lim muassasalari sinf rahbari to‘g‘risida Nizom”** asosida tashkil etildi.

Mazkur dastur va metodik qo‘llanmayuqorida nomlari keltirilgan ta’limga oid huquqiy va me’yoriy hujjatlarga, shuningdek, umumiy o‘rta ta’limning uzluksizligi va izchilligiga, zamonaviy metodologiyalarga asoslangan.

Dasturning maqsadi — Sinf soatlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, zamon talablariga javob beruvchi, ma’naviy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Sinf soat dasturining vazifalari:

milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlashdan iborat.

Bugungi kunda axborot oqimining tezligi natijasida hayotimizga ommaviy madaniyatni salbiy ta’sirlari ham sezilmoqda. Bu masalani o‘quvchilarning ijtimoiy hayotlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ba’zida ota-onalar tomonidan bolalarning beodoblighi, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma tarzda aniq ifodalay olmasligi, mas’uliyatning yetishmasligi, atrofidagilar bilan kelisha olmasligi, o‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlay olmasligi haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. SHuning uchun ham dasturni ishlab chiqishda xaqlaro va milliy tajribaga asoslanilganligini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

“Ta’lim muassasalari sinf rahbari to‘g‘risida Nizom”ga asosan “Sinf rahbari - Ta’lim muassasasining Sinf soati tizimidagi tayanch pedagoglardan biri bo‘lib, o‘ziga birlashtirilgan sinf o‘quvchilarining amalda belgilangan ta’lim va tarbiya olishlarini tashkil etadi.”SHu nuqtai nazardan olib qaraganda bugungi kunda ta’lim muassasalari **sinf rahbarlari faoliyatida quyidagilarga o‘xshash muammolar ko‘zga tashlanmoqda:**

- Ayrim sinf rahbarlari tomonidan o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida o‘z oldilariga qo‘ygan maqsad va vazifalarining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi;
- Sinf soatlarning aniq o‘quv-mavzu reja asosida tashkil etilmayotganligi;
- Ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid qonunlar va qonunosti hujjatlarning ko‘pchiligidan o‘qituvchi va sinf rahbarlarining yetarli darajada xabardor emasligi;
- Ba’zi sinflardagi muhitning qoniqarli emasligi, ahil va mustahkam jamoaning shakllanmaganligi;
- Ayrim ta’lim muassasalarida davomatning pastligi, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilar mavjudligi;
- Ba’zi sinflardagi o‘quvchilarda kundalik daftarlarining mavjud emasligi, borlarining ham sinf rahbari tomonidan nazorat qilinmaganligi;
- Ayrim o‘quvchilarning darslarga tayyorgarliksiz, hatto darsliklarsiz ishtirok etishlari;
- O‘quvchilar internet va mobil telefon qaramligining jismoniy va ruhiy xatarlari haqida yetarli tushunchalarga ega emasliklari;
- Voyaga yetmaganlar o‘rtasida turli zararli oqimlar ta’siriga tushib qolish, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining uchrayotganligi;
- O‘quvchi tarbiyasida muhim o‘rin tutadigan kompetensiyalarga erishilmaganligi;
- Ba’zi o‘qituvchi va tarbiyachilarimizda kasbiy kompetensiyalar yetishmasligi;

- Sinf soati ishlar ta'sirchanligining pastligi;
- Ota-onalar bilan samarali muloqotning yo'lga qo'yilmaganligi;
- Huquqbuzarlik, mobil telefon va internet qaramligi, narkomaniya, tamaki va alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga qarshi kurash hamda oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmaganligi.

Shu o'rinda masalaning muhim bir jihatiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. **Bugungi kunda umumta'lim maktablarida Sinf soatlar amalda qanday tashkil qilinmoqda?**

- Bugungi kundagi aksariyat hollarda Sinf soatlar quruq gaplardan iborat bo'lib, Sinf soat mavzularidan chetga chiqib ketiladi;
- Qaysidir o'quvchining xulqi muhokamaga qo'yiladi;
- O'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari va davomatlari muhokama qilinadi;
- Qandaydir tadbirlarga tayyorgarlik va sinf muammolarini hal etish kabi masalalar xususida so'z boradi.

Sinf soatlar qanday bo'lishi kerak?

- Ta'lim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi Sinf soatlar ham yaxlit Sinf soati usullar, ta'sirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi.
- Sinf rahbari ushbu tadbirlarni o'tkazishga doir aniq ish rejasiga ega bo'lishlari lozim.

Bugungi shiddatli davr barchamizdan axloqiy va ma'naviy jihatdan Sinf soati ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini talab etmoqda. Ma'naviyat yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. SHuning uchun ham sinf rahbarlari va butun o'qituvchilar jamoasi oldida o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi. Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli g'oyalar o'rtasidagi kurash keskinlashgan, "ommaviy madaniyat" xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmog'i orqali uzatilayotgan buzg'unchi axborotlar inson qalbi va ongini o'ziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan.

Sinf soati ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ham barcha sinf rahbarlari o'z Sinf soati faoliyatlarida ana shu mezonlarni hisobga olishlari shart.

Sinf soatlar o'quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalarni amaliyotga tadbiiq etish maydoni hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan Sinf soatlar o'quvchilarda fanlar orqali shakllangan tayanch kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tadbiiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

O'quvchilarda hulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, notiqlik qobiliyatini yuksaltirish, axborotlardan to'g'ri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash Sinf soatlarning asosiy maqsadlaridan birdir. SHuningdek, Sinf soatlar orqali o'quvchilarda to'g'ri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlash, o'z iqtidorini rivojlantirish uchun turli to'garaklarni to'g'ri tanlash, tayyor ish joylarida ishlash emas, balki o'zi ish joylarni yaratishi kabi qobiliyatlar shakllantiriladi.

Umumta'lim maktablarining 1-11-sinf o'quvchilari uchun tuzilgan "Sinf soatlar uchun namunaviy mavzular rejasii" mazmunan Sinf soati-axloqiy hislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari va muhim tarixiy sanalar asosida tuzildi. Bundan tashqari mazkur rejada fan oyliklari davomida o'quvchilar uchun Sinf soati dars soatlarini o'tishda nimalarga e'tibor berish kerakligi e'tiborga olingan.

Mazkur dastur va qo'llanmada bugungi kunda sinf rahbarlari uchun amaliy va uslubiy yordam sifatida Respublika Ta'lim markazi mutaxassislari va amaliyotchilar hamkorligida "Sinf soat"larning mashg'ulot ishlanmalari tavsiya etiladi.

"Sinf soat"lar rejasidagi 8 soatlik "Yo'l harakati qoidalarii"ga doir mavzular dasturi va dars ishlanmalari mazkur qo'llanmada aks ettirilmagan.

Umumta'lim maktablarining o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan "Sinf soat" mashg'ulot ishlanmalarida mazmunan o'quvchilarda Sinf soati-axloqiy xislatlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida donolar hikmatlariga va milliy qadriyatlarimizga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, jismoniy tarbiya, shaxsiy gigiyena, ozodalik, kiyinish odobi, bola huquqlari, tabiatni asrash, iqtisodiy tarbiya, salomlashish va muomala odobi, kitobni sevish kabilar bilan bir qatorda yurtimizda o'tkaziladigan umumxalq bayramlari va muhim sanalarni nishonlashda nimalarga e'tibor berish lozimligi to'g'risida tavsiyalar berilgan.

Sinf soatlarni quyidagi tartibda tashkil qilish mumkin:

Kun shiori:

I. Kirish;

II. Asosiy qism: hikoya, suhbat, ma'ruza, guruhlarda ishlash;

III. Yakuniy qism.

Sinf soatlarda foydalanish uchun mavzuga doir adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Jarayonni ochiq muloqot, davra suhbat, bahs-munozara, treninglar va boshqa har xil noan'anaviy tarzda tashkil etish mumkin.

(Izoh: Taqdim etilayotgan Sinf soatlar dasturiga Umumta'lim maktablarining sinf rahbarlari metod kengashi qaroriga ko'ra 15 % gacha o'zgartirish kiritilishi mumkin.)

“Tasdiqlayman”:
Maktab MMIBDO‘: _____

“Sinf soati” mashg‘ulotlarining 2023-2024-o‘quv yili uchun o‘quv-mavzu rejasi
11–SINF

№	O‘tiladigan mavzular	Soat	Rejada	Amalda
1.	Yangi hayot uchun,yangi O‘zbekiston uchun!	1		
2.	Psixologik madaniyat va salomatlik bilim-ko‘nikmalari	1		
3.	Muvaffaqiyatli inson bo‘lish omillari	1		
4.	Ustoz otangdek ulug‘. (1-oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan).	1		
5.	Vatan taraqqiyotiga mening hissam	1		
6.	Ona tili – qalb ko‘zgusi.	1		
7.	“Men kecha bugun va ertaga” psixologik trening mashg‘uloti	1		
8.	Jamoat joylarida o‘zini tutish odobi.	1		
9.	Salomatlik tuman boylik.	1		
10	Til bilgan – el biladi	1		
11.	Befarqlik va loqaydlik.	1		
12.	Vatan oldidagi burch va mas‘uliyat hissi.	1		
13.	Qonun – ustuvorligi jamiyat farovonligining garovi.	1		
14.	Terrorizm, ekstremizm va axborot tahdidlariga qarshi kurash.	1		
15.	Kasb tanlashda muhim bo‘lgan o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini adekvat baholash.	1		
16.	Yangi yil muborak! Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan.	1		
17.	Xalq tinchligi uchun barcha mas‘ul.	1		
18.	Din va axborot iste‘moli madaniyati.	1		
19.	Korrupsiyasiz – jamiyat quramiz	1		
20.	Buyuk qadriyatlar yaxshilikka yetaklar.	1		
21.	Kiber makon va biz.	1		
22.	Axborot asri tahlikalari.	1		
23.	Ayolga ehtirom!	1		
24.	Jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘luvchi illatlarga qarshi kurash.	1		
25.	Milliy urf-odat va an‘analar.	1		
26.	Amir Temur va jahon madaniyati.	1		
27.	Men va mening bo‘lg‘usi kasbim.	1		
28.	Yoshlarning ota-ona, oila hamda mahalla oldidagi burch hamda majburiyatlari.	1		
29.	Oila psixologiyasi va etikasi haqida tushunchalar	1		
30.	Mustahkam oila qurish bilim-ko‘nikmalari	1		
31.	Vaqtni boshqarish psixologiyasi (time management)	1		
32.	Men sevib o‘qigan kitob.	1		
33.	Men tanlagan kasb.	1		
34.	“Men kecha bugun va ertaga” psixologik trening mashg‘uloti	1		

Sana: “ ” 20__-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

1-Mavzu: Yangi hayot uchun,yangi O‘zbekiston uchun!

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: O‘quvchilarga mustaqillik bayrami va uning mazmun mohiyatiga oid bilimlar berish. Yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘stirish. Mustaqillik, erkinlik, O‘zbekiston muqaddas makon, Vatanga hurmat, qadriyatlarini ulug‘lash, o‘zlikni anglash tuygularini shakllantirish. O‘quvchilarni mustaqillik, erk va vatanparvarlik haqidagi dunyoqarashlarini o‘stirish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: televizor, radiyo, telefon orqali berilgan xabarlarini gapirib bera olish.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi: kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatiga amal qilish, jamoat joylarga o‘zini tuta bilish.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

O‘qituvchi:

Ne-ne bahodirlarning yelkasini yerga tekkizgan afsonaviy Alpomish, zabardast Farhod haqidagi rivoyatu dostonlar shunchaki afsona emas, xalq ruhining, xalq mardligining timsolidir.

Bizning qonimizda ming yillik Sharq tafakkurining bedor ruhi gupurlab turibdi. Biz Beruniylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Boburlarga vorismiz.

Yoshlarning ma‘naviy uyg‘oqligi millatni g‘aflatdan asraydigan asosiy omillardan biridir.

Vatanga bo‘lgan mehru muhabbat har qanday muammoni yechishga, har qanday yovuz kuchni yengishga qodir.



2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquq va manfaatlarini, uning qadri, sha‘ni va g‘ururini yetakchi o‘ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo‘linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko‘p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda.

Aziz o‘quvchilar! O‘z aqli zakovatingiz, bilim va tafakkuringiz, kuch-g‘ayratingizga, tog‘dek tayanchingiz Vatanningizga suyanib, marrani katta oling. Marrani doimo baland olib yashang, ertangi kun bizniki, sizdek shijoatli yoshlarimizniki! Shuni unutmangki, kelgusida erishadigan har bir g‘alabangiz-yurtimiz g‘alabasi O‘zbekiston g‘alabasidir! Mashg‘ulot davomida o‘qituvchi javob bergan o‘quvchilarni fikrlarini ochiqdan-ochiq tanqid qilmagan holda, to‘qri yo‘naltirib, rag‘batlantirib borishi shart.

Ushbu darslar oddiy ma‘ruzavozlikdan iborat bo‘lmasligi, berilayotgan topshiriqlarni ko‘proq amaliy tomonlariga e‘tibor qaratilishi lozim

III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinf: _____ Sinf rahbari: _____

2-Mavzu: Psixologik madaniyat va salomatlik bilim-ko'nikmalari

I.Kirish:

Sinf soati mashg'ulotning maqsadi: O'quvchilarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni kuchaytirish orqali ularni jismoniy va axloqiy jihatdan barkamol etib tarbiyalash, o'quvchilar ongiga sog'lom turmush tarzi asosida yashash qoidalarini singdirish orqali ularda orzu va orzusi bo'yicha tanlagan kasbining mohir ustasi bo'lib yetishishlarida, barcha orzularining ro'yobga chiqishida irodaning, mehnatning, harakatning va ustozlar o'g'itining o'rni alohida ahamiyat kasb etishligini tushuntirish.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallash.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish.

Mashg'ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

Mashg'ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

Mashg'ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg'ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg'ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

O'qituvchi:

Psixologiya (psixo... va ...logiya) — inson faoliyati va hayvonlar xattiharakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'ri-sidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, ta-fakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shaklla nishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda Psixologiya bir tomondan, biol. fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Madaniyat inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada "madaniyat" atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish, hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma'noda madaniyat o'z ichiga san'at, fan va ma'naviy tizimlarni oladi.



III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o'quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.

Maktab MMIBDO' _____ sana _____ 20__yil

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

3-Mavzu: Muvaffaqiyatli inson bo‘lish omillari

I.Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: O‘quvchilarga muvaffaqiyatli inson bo‘lish omillari to‘g‘risida tushuncha berish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — media manbalardan zarur ma‘lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta‘minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirish.

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallash.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

Agar siz o‘z hayot yo‘lingizni muvaffaqiyat bilan boshlashni xohlasangiz, uni har soniya rivojlantirib bormog‘ingiz darkor. Xuddiki, bog‘ingizdan yaxshi hosil olish uchun uni qancha parvarish qilsangiz, muvaffaqiyatga erishish uchun ham o‘zingizni kun sayin rivojlantirib borishingiz kerak.

Hozirda biz sizga muvaffaqiyatli inson bo‘lish uchun qanday fazilatlariga ega bo‘lish kerakligi haqida birma bir ma‘lumot berib o‘tamiz. Bunday muvaffaqiyatli insonlar qandaydir yutuqlarga omad yoki tasodif orqali erishishmagan. Balki, yillar mobaynida qilgan sa‘y-harakatlari orqali o‘z muvaffaqiyat kalitini qo‘lga kiritishgan.

Agar hayotingizni odatiy insonlarning hayoti kabi odatiy holatda kechirsangiz, hech narsaga erisha olmaysiz. Shu sababli ham har kuningizni biron bir muhim ishlarni qilish to‘g‘risidagi qat‘iy rejalar bilan boshlang va buni aslo unutmang!

Ma‘lumki, barcha muvaffaqiyatli odamlarda umumiy narsa bor. Sizni o‘yin o‘ynashga taklif qilamiz.

Muvaffaqiyatli odam va har doim omadsiz odam o‘rtasidagi o‘nta farqni topishga harakat qilaylik.

Shunday qilib, hayotda qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin:

Muvaffaqiyatli odam doimo izlanadi variantlari o‘z maqsadlariga erishish uchun, mag‘lub - qiyinchiliklar va to‘siqlar. klassik hayotiy vaziyat- Yashash uchun pul yetarli emas. Muvaffaqiyatli odam o‘z muammolarini hal qilish yo‘lini topishga harakat qiladi. moliyaviy muammolar. U pul ishlash imkoniyatini qidiradi.

Muvaffaqiyatsiz odam o‘zining barcha muvaffaqiyatsizliklarining sababini tashqi omillardan izlaydi

Muvaffaqiyatli odam hamma narsani qilishga intiladi Bugun, va yutqazgan barcha ishlarini ertaga qoldiradi.



III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

vab-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

39 listdan iborat 11-sinf o'quvchilarga Sinf soatini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 20 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**